



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN
BUKHARA STATE UNIVERSITY**

**“O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TURIZMNI
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI”
Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

Buxoro shahri, 13-14-iyun 2025-yil

**“ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО
ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ”**

Международная научно-практическая конференция

г. Бухара, 13-14-июня 2025 года

**“PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF
INCLUSIVE TOURISM IN UZBEKISTAN”**

International Scientific and Practical Conference

Bukhara, June 13-14, 2025

Buxoro – 2025

“O‘zbekistonda inklyuziv turizmni rivojlantirish istiqbollari”. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plami. 2025-yil 13-14-iyun: - Buxoro :

1. Quyidagi tarkibdan iborat dasturiy qo‘mita

1.	O.X.Xamidov	- Buxoro davlat universiteti rektori, i.f.d., professor, rais;
2.	K.A.Samiyev	- Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, f-m.f.d., professor, rais muovini;
3.	N.S.Ibragimov	- Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani v.v.b., i.f.d., professor, loyiha rahbari, a‘zo
4.	D.Sh.Yavmutov	- Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, i.f.d, professor, a‘zo;
5.	A.T.Jurayev	- Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor, i.f.n, dotsent, a‘zo;
6.	O.S.Qahhorov	- Ilmiy tadqiqod va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig‘i, i.f.d, professor, a‘zo;
7.	B.N.Navruz-Zoda	- Marketing va menejment kafedrası professori, i.f.d., psofessor, a‘zo;
8.	A.J.Abdullayev	- Iqtisodiyot kafedrası mudiri, i.f.d., professor, a‘zo;
9.	H.R.Turobova	- Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası mudiri, i.f.f.d,
10.	J.R.Toxirov	- Marketing va menejment kafedrası mudiri, i.f.f.d, a‘zo;
11.	Y.K.Sunnatov	- Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası mudiri, i.f.f.d,a‘zo;

2. Quyidagi tarkibdan iborat tashkiliy qo‘mita

1.	K.A.Samiyev	- Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, f-m.f.d., professor, rais;
2.	O.S.Qahhorov	- Ilmiy tadqiqod va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig‘i, i.f.d, professor, a‘zo;
3.	N.S.Ibragimov	- Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani v.v.b., i.f.d., professor, loyiha rahbari, a‘zo
4.	B.N.Navruz- Zoda	- Marketing va menejment kafedrası professori, i.f.d., psofessor, a‘zo;
5.	A.J. Abdullayev	- Iqtisodiyot kafedrası mudiri, i.f.d., professor,a‘zo;
6.	H.R.Turobova	- Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası mudiri, i.f.f.d,
7.	J.R.Toxirov	- Marketing va menejment kafedrası mudiri, i.f.f.d, a‘zo;
8.	Y.K.Sunnatov	- Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası mudiri, i.f.f.d,
9.	Z.S.Nurov	- Ta‘lim sifatini nazorat qilish departamenti boshlig‘i, i.f.f.d,
10.	M.H.Qilichov	- Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası o‘qituvchisi,
11.	K.Sh.Yuldashev	- Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası o‘qituvchisi,
12.	I.O.Davronov	- Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası o‘qituvchisi,
13.	O.O.Radjabov	- Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası o‘qituvchisi,
14.	E.A.Farmonov	- Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası o‘qituvchisi,

Mazkur to‘plamga kiritilgan ilmiy ishlar va g‘oyalar mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar, sanalarning aniqligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning shaxsan o‘zlari mas‘uldirlar.

Ushbu xalqaro anjuman O‘zbekiston Respublikasi Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida moliyalashtirilayotgan ALM-202403110241-raqamli “Nogironligi bor shaxslar uchun inklyuziv turizm infratuzilmasining interfaol xaritasini yaratish” mavzusidagi loyiha doirasida tashkil etildi.

6. **Liu, H., & Wang, J. (2021).** "The Influence of Mobile Technology on the Tourism Industry." *Tourism Technology & Innovation Journal*, 9(3), 52-65.
7. **Borisov, D., & Shukurov, A. (2020).** "Modernizing Cultural Heritage through Technology: A Global Perspective." *Cultural Heritage and Innovation Journal*, 9(2), 15-28.
8. Buhalis, D., & Amaranggana, A. (2015). *Smart tourism destinations enhancing tourism experience through personalisation of services*. Information and Communication Technologies in Tourism, pp. 377-389.
9. Buhalis, D., & Leung, R. (2018). *Smart hospitality—Interconnectivity and interoperability towards an ecosystem*. International Journal of Hospitality Management, Vol. 71, pp. 41-50.
10. **Tashkent State University of Economics (2020).** "Mobil ilovalar va raqamli transformatsiya: O'zbekistonda turizmni rivojlantirish." *O'zbekiston iqtisodiyoti ilmiy to'plami*.

TURIZM SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA YORDAMIDA TRANSPORT XIZMATLARI SIFATINI OSHIRISH

**Farmanov E.A. – BuxDU,
Iqtisodiyot va turizm fakulteti o'qituvchisi
Bozorova Saodatxon – BuxDU,
Iqtisodiyot va turizm fakulteti talabasi**

Annotatsiya: *ushbu maqolada, turizm sohasida raqamli transformatsiya yordamida transport xizmatlari sifatini oshirish masalasiga bag'ishlangan bo'lib, raqamli texnologiyalar, narsalar interneti (IoT), sun'iy intellekt (AI), Big Data va mobil ilovalar orqali sayohatchilarga qulaylik yaratish, transport tizimini avtomatlashtirish, real vaqtda ma'lumotlar asosida qarorlar qabul qilish imkoniyatlari keltirib o'tilgan. Shuningdek, raqamli yechimlarning joriy etilishi orqali turistik transport xizmatlarining samaradorligini oshirish bo'yicha xalqaro tajribalar o'rganilgan va O'zbekistonda ushbu jarayonni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiyalar, raqamli transformatsiya, narsalar interneti (IoT), sun'iy intellekt, Big Data, mobil ilovalar, transport xizmatlari.*

Bugungi kunda raqamli transformatsiya global miqyosda barcha sohalarga kirib kelmoqda. Ayniqsa, turizm va transport xizmatlari bu jarayonda yetakchi yo'nalishlardan biri hisoblanmoqda. Turistlarning harakatlanishi, manzilgacha yetib borishi, sayohatni rejalashtirish va unga doir ma'lumotlarni olish kabi jarayonlar raqamli texnologiyalar vositasida yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Raqamli transformatsiya hozirgi davrda turizm sohasining barcha yo'nalishlarida jadallik bilan kirib kelmoqda, ayniqsa, transport xizmatlarining raqamlashtirilishi sayohat jarayonini soddalashtirib, foydalanuvchilarga yuqori darajadagi qulaylikni taqdim etmoqda. Bu esa jarayonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhim rol o'ynaydi. Turizmni rivojlantirish bevosita transport xizmatlari bilan bog'liqdir. Jadal rivojlanib borayotgan jamiyatda biz raqamli transformatsiya degan so'zga ko'p bora uchrayapmiz. Biz tilga olayotgan raqamli transformatsiya tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak.

Raqamli transformatsiya — raqamli texnologiyalar yordamida an'anaviy ish uslublarini zamonaviylashtirish, avtomatlashtirish va yaxshilash jarayonidir. Transport xizmatlarida bu texnologiyalar quyidagilarga olib keladi:

- ✓ Onlayn chiptalarni sotish va bron qilish;
- ✓ Avtomatik marshrut tuzish;
- ✓ Sun'iy intellekt yordamida yo'lovchi oqimini boshqarish;
- ✓ IoT (Internet of Things) orqali texnik holatni monitoring qilish.

Raqamli transformatsiyalarning transport xizmatlariga ta'siri juda ham muhim hisoblanadi. Ko'plab Yevropa mamlakatlarida joriy qilingan yagona elektron chiptalash tizimlari sayohatchilarga bir nechta transport turlaridan foydalanishda soddalik yaratmoqda. Shuningdek,

O'zbekiston misolida "Railway" va "uzairways" kabi tashkilotlar tomonidan onlayn xizmatlar joriy etilishi turizm transport infratuzilmasining raqamlashtirilayotganidan dalolat beradi.

Raqamli transformatsiyaning transport xizmatlariga ta'siri

Onlayn bron tizimlari: Aviachiptalar, avtobus va temiryo'l chiptalarini onlayn sotib olish imkoniyati sayyohlar uchun vaqt va resurslarni tejaydi.	Mobil ilovalar: Harakat jadvali, yo'nalish bo'yicha navigatsiya, real vaqt rejimida transport holatini kuzatish imkoniyatlari mavjud.	Sun'iy intellekt va IoT: Aqlli transport tizimlari orqali yo'lovchi oqimini boshqarish, xavfsizlikni ta'minlash, xizmatlar sifatini monitoring qilish imkonini beradi.	Big Data va analitika: Sayyohlar ehtiyojlarini aniqlash, xizmatlarni shaxsiylashtirish, marketing strategiyalarini takomillashtirish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.
--	---	--	---

Turizmning ajralmas qismi — transportdir. Chunki, turistlar manzilga yetib borishi, ichki harakatlanishi, aeroport, temir yo'l, avtobus, taksi xizmatlaridan foydalanishlari zarur. Ko'p holatlarda turist sayoyati davomida transport vositalaridan qiynaladi va bu ularning ortiqcha kuch va mablag' sarf qilishiga sabab bo'ladi. Bunday hollarda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish ko'plab muammolarni hal qilishga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar bizga qulaylik bilan birga boshqa ko'plab imkoniyatlarni taqdim etadi.

Raqamli texnologiyalar bu bosqichlarni quyidagicha osonlashtiradi:



Bu imkoniyatlar turizm sohasida juda muhim bo'lgan omillardir. Chunki, tashrif buyurgan sayyoh yoki turist erkin harakatlanish va qulay sayohat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Xizmat sifatini oshirishdagi foydalanuvchilar tajribasidan kelib chiqib, ilovalar va tizimlar intuitiv va qulay bo'lishi lozim bo'lib, bunda raqamli tizimlar insonga nisbatan tezroq va kam xatolik bilan ishlaydi. Hamda, Big Data yordamida har bir foydalanuvchiga mos takliflar va video monitoring, GPS, biometrik tekshiruvlarni amalga oshiradi.

Hozirgi XXI asr texnologiyalar asri bo'lgan bir vaqtda bir qancha rivojlangan mamlakatlarda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanmoqda va undan foydalanib kelishmoqda. Xususan, xorij mamlakatlarda bir qator ilmiy va amaliy ishlar amalga oshirilgan bo'lib, transport xizmatlari sifatini oshirishda raqamli texnologiyalar unumli foydalanmoqda. Bunda, Estoniya davlatida MaaS X-Road tizimi yo'lga qo'yilishi rejalashtirilayotgan integratsiyalashgan raqamli platforma bo'lib, u avtobuslar, poezdlar, taksilar va avtomobil ijarasi kabi turli transport xizmatlarini yagona onlayn muhitda birlashtirishni maqsad qilgan. Ushbu platforma yordamida foydalanuvchilarga barcha kerakli yo'l chiptalarini xarid qilish va sayohatlarini bir martalik tranzaksiya orqali rejalashtirish imkonini beradi. Singapurda esa – raqamli transport tizimi orqali real vaqt monitoring, ekologik harakat rejalarini taqdim etmoqda. Deutsche Bahn ilovasi Deutsche Bahn AG tomonidan ishlab chiqilgan mobil ilova bo'lib, Germaniyada yo'lovchilarga poezdlar, jamoat transporti va boshqa xizmatlardan foydalanishni qulaylashtiradi. Shuningdek, jahonda raqamli texnologiyalar bo'yicha yetakchi mamlakatlaridan Xitoyda WeChat orqali keng qo'llaniladigan "super ilova" bo'lib, unda transport, mehmonxona va boshqa xizmatlar birlashtirilgan yagona raqamli ekotizim yo'lga qo'yilgan.

Shu o'rinda, O'zbekistonda ham raqamli transformatsiya bosqichma-bosqich amalga oshirish ishlari jadallik bilan rivojlanib, hozirgi kunda "UzRailway Tickets", "MY TAXI", "UzAutoSavdo", "Yagona transport portal" singari mobil ilova va platformalar yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, Toshkent shahrida raqamli yo'l harakati boshqaruvi, GPS monitoring va QR-kodli chipta tizimlari joriy etilmoqda.

Raqamli transformatsiyalarni rivojlantirish bilan birga sohada bir qator muammolar hali hamon ochiq qolmoqda, xususan mamlakatimizda internet tezligi va qamrov darajasi ayrim hududlarda yetarli emas, fuqarolarning raqamli savodxonligi past, xizmatlar o'rtasida integratsiya yetarli emasligi va boshqalar shular jumlasidan. Bunday kamchiliklar raqamli transformatsiyalarning jadal rivojlanishiga to'siq bo'lmoqda. Eng avvalo bunday muammolarni yechimini yechish internet sifatini yaxshilash, fuqarolar bilan raqamli texnologiyalar mavzusida suhbatlar tashkil qilish, aholi gavjum joylarda, bekatlarda va jamoat joylarida bepul internet tarmog'ini tashkil qilish lozim.

Raqamli transformatsiyalar qulaylik bilan bir qatorda ochiqlik imkoniyatini ham beradi. Ya'ni raqamli tizimlar yordamida narxlar, xizmat sifati va reytinglar shaffof bo'ladi. Foydalanuvchilar o'zlariga mos va qulay bo'lganini tanlab xizmatlardan foydalanishadi.

Raqamli transformatsiyalarni rivojlantirish uchun bir qancha tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, bunda quyidagilarni amalga oshirish kerak. Ya'ni transport va turizm xizmatlarini yagona ekotizimga birlashtirish orqali yuqori sifatli xizmatni ko'rsatish, blokcheyn texnologiyalarini joriy etish orqali xavfsizlikni oshirish, turizm uchun AR/VR texnologiyalaridan foydalanish va mahalliy startaplar va IT kompaniyalar bilan hamkorlikni kengaytirish lozim.

Bunda, turizm sohasida raqamli transformatsiya qo'llash orqali transport xizmatlarini zamonaviylashtirishda hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Bu jarayon orqali nafaqat xizmat sifati oshmoqda, balki sayyohlarning umumiy tajribasi ham ijobiy tomonga o'zgarayotgani kuzatilmoqda. Kelgusida raqamli yechimlarni yanada kengaytirish va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish transport xizmatlari samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Turizm sohasida raqamli transformatsiya nafaqat xizmat ko'rsatish sifati, balki butun sohaning samaradorligini oshiradi. Transport xizmatlari orqali turistlar mamlakatda ilk taassurotga ega bo'lishadi, shu sababli bu xizmatlarning qulay, xavfsiz va tezkor bo'lishi muhimdir. Raqamli texnologiyalar esa ushbu imkoniyatlarni samarali tarzda taqdim etadi. O'zbekistonda raqamli transformatsiyaning rivojlanishi orqali nafaqat ichki turizm, balki xalqaro turizm salohiyati ham oshadi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, raqamli texnologiyalar hayotimizda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiya hayotimizni nafaqat qulaylashtirmoqda balki vaqtimizni ham tejamoqda. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi turizm sohasini ham tubdan rivojlantirmoqda. Chunki turizm sohasi transport bilan bevosita bog'liq sohadir. Raqamli transformatsiya turizm sohasida, xususan, transport xizmatlarida sifat, qulaylik va samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Sun'iy intellekt, IoT, Big Data, mobil ilovalar kabi ilg'or texnologiyalar sayyohlar uchun foydali imkoniyatlar yaratmoqda, xizmatlar esa avtomatlashtirilgan va shaffof tizimlar asosida boshqarilmoqda.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli texnologiyalarni keng qo'llash orqali turizm xizmatlarini yuqori darajaga olib chiqish mumkin. O'zbekistonda ham bu yo'nalishda ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda, ammo ba'zi infratuzilma va raqamli savodxonlik bilan bog'liq muammolar mavjud. Kelgusida transport va turizm xizmatlarini yagona raqamli ekotizimga birlashtirish, texnologik innovatsiyalarni joriy etish va aholi o'rtasida raqamli madaniyatni oshirish orqali bu sohada raqamli transformatsiyani yanada rivojlantirish mumkin bo'ladi. Bu esa O'zbekistonning turistik salohiyatini oshirib, mamlakatni global turizm xaritasida raqobatbardosh qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil, 5-oktabrdagi "“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-sonli farmoni. (<https://lex.uz/ru/docs/-5030957>)
2. Keong, C. K., & Grace, O. N. G. (2015). Smart Mobility 2030—ITS strategic plan for Singapore. Land Transport Authority of Singapore.

3. Engartner, T. (2008). Die Privatisierung der Deutschen Bahn. VS Verlag für Sozialwissenschaften.
4. Zhang, Y., Li, X., & Hamari, J. (2020). How does mobility affect social media advertising effectiveness? A study in WeChat. *Industrial Management & Data Systems*, 120(11), 2081-2101.
5. Canton, H. (2021). World Tourism Organization—UNWTO. In *The Europa Directory of International Organizations 2021* (pp. 393-397). Routledge.
6. Kindzule-Millere, I., & Zeverte-Rivza, S. (2022, January). DIGITAL TRANSFORMATION IN TOURISM: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES. In *Economic Science for Rural Development Conference Proceedings* (No. 56).
7. <https://railway.uz/en/>
8. <https://www.uzairways.com/en>

TURIZMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING AHAMIYATI

Manzila Nuriddinovna Habibova

*Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti,
O'zbek tili va adabiyoti, rus va ingliz tili kafedrasi o'qituvchisi
habibova.manzila@bsmi.uz*

Annotatsiya: ushbu maqolada turizm sohasida raqamli transformatsiyaning o'рни va ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar turistik xizmatlar sifatini oshirish, foydalanuvchi tajribasini yaxshilash hamda soha raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim vositaga aylanmoqda. Internet, mobil ilovalar, sun'iy intellekt, virtual haqiqat (VR), blokcheyn va kontaktsiz to'lov tizimlari kabi innovatsiyalar turizmning barcha bosqichlariga chuqur kirib bormoqda. Maqolada raqamli transformatsiyaning asosiy yo'nalishlari, ularni joriy etishning foydalari, shuningdek, duch kelinayotgan muammolar va yechimlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, turizm, raqobatbardoshlik, texnologiya, innovatsion menejment, barqaror rivojlanish, sayohat tajribasi, yangi mahsulot va xizmatlar, Airbnb, Uber, virtual haqiqat.

KIRISH

Zamonaviy turizm sanoati tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda va bu jarayonda innovatsiyalar muhim rol o'ynamoqda. Turizmدا innovatsiya deganda yangi mahsulotlar, xizmatlar va texnologiyalarni joriy etish orqali sayyohlik tajribasini yaxshilash, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish tushuniladi. Innovatsiyalar nafaqat turizm sanoatini zamon bilan hamnafas qiladi, balki uning barqaror va ekologik rivojlanishiga ham zamin yaratadi. Ushbu maqolada turizmда innovatsiyaning mohiyati, zarurati, muvaffaqiyatli innovatsiyalar misollari hamda ularni boshqarish tamoyillari batafsil tahlil qilinadi.

“Innovatsiya” atamasi birinchi marta 1911 yilda Jozef Shumpeter tomonidan tasvirlangan. Uning tushunchasiga ko'ra, bu atama «yangilik yaratish» tushunchasi bilan taxminan sinonim edi.

Turizmда innovatsiya - bu turizm sohasida yangi va noyob mahsulotlar, xizmatlar, texnologiyalar va amaliyotlarni yaratish va joriy etishdir. Innovatsiyalar nafaqat turistik mahsulotning o'ziga, balki ularni yaratish va amalga oshirishni boshqarish jarayonlari va usullariga ham tegishli bo'lishi mumkin.

Innovatsiyalar turizmni rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Doimiy innovatsiyalarsiz va yangi va qiziqarli mahsulotlar yaratilmasa, turizm sanoati o'zining jozibadorligi va mijozlarini yo'qotishi, shuningdek, biznes uchun kamroq foyda keltirishi mumkin.

Turizmдаgi innovatsiyalarning ahamiyati shundaki, ular turizmning barqaror va ekologik toza rivojlanishiga, shuningdek, turizm rivojlanayotgan hududlarda aholi farovonligini oshirishga hissa qo'shishi mumkin. Turizm sohasidagi innovatsiyalar yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiyotni yuksaltirishi mumkin.

Axmatova Mohigul Ergash qizi, Vafoyeva Mahliyyo Jamshidovna. TURIZM INDUSTRIYASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: SUNIY INTELEKT, VA BLOCHCHEYN TEKNOLOGIYALARINING STRATEGIK INTEGRATSIYASI	154
Farmanov E.A., Bozorova Saodatxon. TURIZM SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA YORDAMIDA TRANSPORT XIZMATLARI SIFATINI OSHIRISH	157
Manzila Nuriddinovna Habibova. TURIZMDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING AHAMIYATI	160
Salimova Sarvinoz Fazliddin qizi. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TURISTIK MARSHRUTLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	163
Tukhtaeva Khurshida Farkhodovna. THE IMPLEMENTATION OF INTELLENT TECHNOLOGIES IN THE TOURISM SECTOR WITHIN THE FRAMEWORK	169
Xabibullina Liliya Jaxonovna. TURIZM SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVATSIYALAR.....	175
Narzullaeva Gulchekhra Salimovna, Nuriddinova Gulsanam Bakhridin qizi. DIGITAL TAXATION SYSTEMS IN THE DIGITAL ECONOMY AND THEIR APPLICATION FEATURES IN UZBEKISTAN	178
Teshaev Hotamjon Ixtiyor o'g'li. RAQAMLI IQTISODIYOTDA UMUMIY RAQAMLI SOLIQ SOLISH TIZIMLARI VA ULARDAN MAMLAKATIMIZDA FOYDALANISH XUSUSIYATLARI.....	182

5-SHO'BA. MAHALLIY TURIZM VA JAMOALARNING RIVOJLANISHI: ICHKI VA MINTAQAVIY IMKONIYATLAR.....188

Baranov Alexander, Philippova Inga. PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF KHAN TOURISM IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	188
Azimov O.X. BUXORO VILOYATIDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINING ZAMO NAVIY TENDENSIYALARI VA MODELLARI	192
Yuldashev Kamol Sharifovich, Davronov Istamxo'ja Olimovich. ROMITAN VA KOGON TUMANLARINING TURIZM SALOHIYATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ILMIY-TADQIQOTLARNING MAVZULARINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI	194
Ismoilova Xumora Jamoliddin qizi. THE ROLE OF NOSTALGIA TOURISM IN SHAPING SELF-IDENTITY:.....	198
Kuvandikov Aziz Ravshanovich. BUXORO DESTINASIYASINING JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MICE TURIZM SALOHIYATIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	201
Omonova Nilufar Rahmon qizi. TADBIR TURIZMI BUXORO DESTINATSIYASI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA	203
Yoriyeva Dilafroz Oltinovna. XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	206
Umirov Jasurbek Temirquliyevich. CULTURAL DIVERSITY AND VALUES ISSUES IN INTERNATIONAL TOURISM	215
Teshayev N.N. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati ma'naviy omillari va mafkuraviy tamoyillari falsafiy mohiyatini o'rganishning ahamiyati.....	217
Xamroyev Xalim Rozikovich. Barqaror rivojlanish va erkin iqtisodiy zonalar	219
Alisher Xudonazarovich Shadiyev. MINTAQALARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL, NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	227
Xalim-Zade Azizabonu Shuxratovna. O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLAR TAHLILI.....	234
Shadiyeva Madina Djaloliddin qizi. MAMLAKATIMIZ SUG'URTA BOZORIDA INNOVATION MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHDA XORIJ TAJRIBASI: MUAMMO VA YECHIMLAR	247

Hamidullayeva Mumtozabegim Rustam qizi, Munisa Mansurovna Bahrombekova. DEVELOPMENT OF INCLUSIVE TOURISM IN UZBEKISTAN: CURRENT CHALLENGES AND OPPORTUNITIES	251
Sayfulloyev Oybek Olimovich. AGROTURIZM SOHASIGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNI BOSHQARISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....	256
Давронова Нигора Фармоновна. МЕТОДЫ ПРОЕКТИРОВАНИЯ И ОСОБЕННОСТИ КОНСТРУКЦИИ ДОМОВ Г. БУХАРЫ В XVI-XIX ВВ.	264